



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI

2026/5



+998335668868



www.innoworld.net

Google Scholar



zenodo





2026

YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI

3-JILD 5-SON



YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI
TO'PLAMI

3 - JILD, 5 - SON
2026



www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026

**ZAMONAVIY XALQARO MUNOSABATLARDA JANUBI-SHARQIY
OSIYO MINTAQASINING O‘RNI VA UNING XAVFSIZLIK****MASALALARI****Jonibek Erkayev**

Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi 2-kurs magistranti
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Janubi-sharqiy Osiyo mintaqasining geostrategik xususiyatlari, mintaqadagi mavjud muammolar va ularning kelib chiqish haqida so‘z boradi. Bundan tashqari, Janubi-sharqiy Osiyoning xalqaro munosabatlardagi ahamiyati sezilarli darajada oshishiga xizmat qiluvchi omillar bilan bir qatorda mintaqaning xalqaro xavfsizlikni ta‘minlashdagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, dunyoning yetakchi davlatlarining Janubi-sharqiy Osiyo mintaqasidagi strategik ta‘siri o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: ASEAN, “Bangkok deklaratsiyasi”, “ASEAN Xavfsizlik hamjamiyati”, “ASEAN Iqtisodiy hamjamiyati” va “ASEAN Ijtimoiy-madaniy hamjamiyat”, transmilliy tahdidlar, “Jamo‘a Islomiyah”, “Abu Sayyof”

Kirish. Mintaqalar va mintaqaviy kuchlarning global siyosatdagi ishtirokchilar sifatidagi ahamiyati ortib borishi bilan bir qatorda, xalqaro munosabatlar yo‘nalishida tadqiqotlarida ham ahamiyat kasb etayotgani ko‘rinib turibdi. Mana shunday ahamiyatli mintaqalardan biri Janubi-sharqiy Osiyo mintaqasi hisoblanadi. Bugungi kunda Janubi-sharqiy Osiyo deganda, bu mintaqani tashkil etuvchi davlatlar Myanma, Tailand, Kambodja, Filippin, Singapur, Laos, Vyetnam, Indoneziya, Malayziya, Bruney Darussalam va Sharqiy Timor kabi mamlakatlar tushuniladi. Bu davlatlarning barchasi bir-biri bilan tarix davomida, ayniqsa, madaniy jihatdan bir-biriga o‘zaro ta‘sir o‘tkazib, aralashib ketgan. Hozirgi Malayziya, Filippin va Singapur bir vaqtlar buyuk Malay imperiyasini tashkil qilgan va bu imperiya o‘z davrida mintaqada hukmronlik qilgan. Shuningdek, Janubi-sharqiy Osiyo mintaqasi global savdo yo‘llari kesishgan joyda joylashganligi, hududi tabiiy resurslarga boyligi, global xavfsizlikka, mintaqalararo hamkorlik istiqboliga ta‘siri kuchli bo‘lganligi sababli ushbu mintaqaga har doim tadqiqotchilar, mutaxassislar tomonidan katta qiziqish bilan tadqiq etilib kelingan. 1995-yilda imzolangan Janubi-sharqiy Osiyo yadro qurolidan xoli hudud to‘g‘risidagi bitim (Southeast Asia Nuclear Weapon Free Zone – SEANWFZ) asosida mintaqada davlatlarining hech biri ommaviy qirg‘in qurollari hisoblangan yadro qurollariga ega bo‘lish tashabbusini ilgari surmaydi. Bu kabi omillar xalqaro munosabatlar va mintaqashunos har qanday tadqiqotchini mintaqani chuqur o‘rganishga qiziqish uyg‘otadi.

Asosiy qism. Janubi-sharqiy Osiyo o‘zining strategik joylashuvi, iqtisodiy salohiyati, turli madaniyatlarga boyligi va global geosiyosatdagi o‘rni bilan xalqaro munosabatlarda muhim ahamiyatga ega. Bu mintaqaga Hind okeani va Tinch okeani o‘rtasida muhim o‘rinni egallab, Sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq va Yevropa o‘rtasidagi dengiz savdosi uchun darvoza bo‘lib xizmat qiladi. Xususan,



Malakka bo'g'uzi dunyodagi eng gavjum yu8k tashish yo'nalishlaridan biri bo'lib, global savdoning katta qismi, shu jumladan energiya jo'natmalari shu orqali o'tadi. Bundan tashqari, Janubiy-sharqiy Osiyoda dunyoning eng tez rivojlanayotgan iqtisodiyotlari mavjud bo'lib, Indoneziya, Vyetnam, Tailand va Filippin kabi mamlakatlar jadal iqtisodiy o'sishni boshdan kechirmoqda. Ushbu mamlakatlar global ta'minot zanjirlarida, xususan, ishlab chiqarish, elektronika va to'qimachilikda asosiy o'yinchilar hisoblanadi. 1967-yilda Bangkok shahrida tuzilgan Janubiy-sharqiy Osiyo davlatlari uyushmasi (Association of Southeast Asian Nations, keyingi o'rinlarda ASEAN) yirik iqtisodiy blok bo'lib, umumiy aholisi 650 milliondan ortiq va yalpi ichki mahsuloti 3 trillion dollardan ortiqni tashkil etadi. 1967-yilgi "Bangkok deklaratsiyasi"ga ko'ra, tashkilotning maqsad va vazifalari belgilab olindi. Ushbu deklaratsiya matnida tashkilotning quyidagi asosiy yettita maqsad va vazifalari ko'rsatib o'tilgan:

1. Iqtisodiy o'sish, ijtimoiy va global taraqqiyot.
2. Mintaqaviy tinchlik va barqarorlik.
3. Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, texnik, ilmiy va boshqaruv ishlarida hamkorlik.
4. Ta'lim va tadqiqot sohasida o'zaro hamkorlik qilish.
5. Qishloq xo'jaligi va sanoatda hamkorlik, savdo, transport va turmush darajasini oshirishda hamkorlik.
6. Janubiy-sharqiy Osiyo bo'yicha tadqiqotlarni targ'ib qilish va rivojlantirish.
7. Mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik.

ASEAN boshqa yirik iqtisodiyotlar, jumladan, Xitoy (mintaqaviy keng qamrovli iqtisodiy sheriklik doirasida), Yaponiya, Janubiy Koreya, Avstraliya va Yangi Zelandiya bilan erkin savdo kelishuvlariga ega. Mintaqa, shuningdek, global savdoning ajralmas qismi bo'lib, uning iqtisodiy integratsiyasi uni investitsiya, ishlab chiqarish va eksport markaziga aylantirish imkonini berdi. Janubiy-sharqiy Osiyoda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, asosan, Xitoy, Yaponiya, AQSH va Yevropa davlatlaridan jalb qilinadi. Mintaqada katta miqdordagi yosh ishchi kuchi va o'sib borayotgan iste'mol bozorlari mavjud. Birgina Singapurni olib qaraydigan bo'lsak, allaqachon asosiy moliyaviy markazlardan biriga aylangan. Indoneziya va Vyetnam davlatlari esa nafaqat mintaqada, balki butun dunyoda ishlab chiqarish va yig'ish, ayniqsa elektronika sohasida muhim markazlarga aylangan. Janubi-sharqiy Osiyo mintaqasi davlatlari raqamli texnologiyalardan foydalanishning yuqori pog'onasida bo'lib, internetdan foydalanish, elektron tijorat va texnologik innovatsiyalar o'sib bormoqda. Singapur, Vyetnam, Malayziya kabi davlatlar kompyuter texnologiyalari va innovatsiyalar bo'yicha yetakchi davlatlar sifatida shakllanmoqda. Mintaqaning yosh, texnologiyani yaxshi biladigan aholisi raqamli xizmatlar uchun o'sib borayotgan bozor bo'lib, Janubiy-sharqiy Osiyo mintaqasi global axborot-texnologiya tarmoqlariga tobora ko'proq bog'langan mintaqalardan biridir.



Mintaqaning asosiy savdo hamkori hisoblanadigan Xitoyning "Bir kamar, bir yo'l" tashabbusi Janubi-sharqiy Osiyoda sezilarli yutuqlarga erishmoqda. Xitoy temir yo'llar, portlar va energiya zavodlari kabi infratuzilma loyihalariga katta miqdorda sarmoya kiritdi. Ushbu investitsiyalar mintaqaning iqtisodiy landshaftini qayta shakllantiradi, lekin qarz barqarorligi va Xitoyning o'sib borayotgan ta'siri haqidagi xavotirni uyg'otishi aniq.

Janubi-sharqiy Osiyo mintaqasi strategik qulay hududda joylashganiga qaramasdan, iqlim o'zgarishining ta'siriga, jumladan, dengiz sathining ko'tarilishi, ekstremal ob-havo hodisalari, tayfun va suv toshqinlari kabi tabiiy ofatlarga juda zaif mintaqahisoblanadi. Bu muammolar sababli Indoneziya, Filippin va Vyetnam kabi mamlakatlar aholining keng ko'lamlilik ko'chib ketishi ehtimoli bilan alohida xavf ostida yashaydi. Mintaqaning ekologik muammolari global iqlim siyosati va tabiiy ofatlarga qarshi kurash, iqlimga moslashish va barqaror rivojlanish kabi sohalarida xalqaro hamkorlikka ta'sir qiladi.

Ushbu mintaqadagi davlatlarni o'zida birlashtirgan ASEAN mintaqaviy diplomatiyada muhim rol o'ynaydi va mintaqaviy muammolarni hal qilish, muloqotni rivojlantirish va savdo, xavfsizlik va ekologik barqarorlik kabi sohalarida hamkorlikni rivojlantirish uchun asosiy platformaga aylanib ulgurgan. U mintaqaviy kuchlar (jumladan, Xitoy, Yaponiya va Hindiston) uchun Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan aloqa qilish uchun qulay sharoit yaratadi. ASEAN+3 va ASEAN+6 kabi formatlar - ASEAN davlatlari, shuningdek, Xitoy, Yaponiya va Janubiy Koreyani (ASEAN+3) va ASEAN+6 (jumladan, Avstraliya, Yangi Zelandiya va Hindiston) o'z ichiga oluvchi formatlar iqtisodiy hamkorlik, siyosiy muloqot va mintaqaviy barqarorlik uchun muhimdir. Ushbu forumlarda ASEANning markaziy roli uning Hind-Tinch okeani mintaqasida ko'p tomonlamalik va hamkorlikni rivojlantirishdagi rolini yanada kuchaytiradi.

2005-yil dekabr oyida Kuala-Lumpurda bo'lib o'tgan ASEAN 11-sammiti tashkilot rivojlanishida muhim bosqich bo'ldi. Sammit davomida ASEANning maqsad va vazifalariga erishish uchun huquqiy va institutsional asosni ta'minlovchi "ASEAN Nizomi"ni tayyorlash bo'yicha Kuala-Lumpur deklaratsiyasi imzolandi va "ASEAN Xavfsizlik hamjamiyati", "ASEAN iqtisodiy hamjamiyati" va "ASEAN Ijtimoiy-madaniy hamjamiyat" tashkil etildi, "ASEAN hamjamiyati"ni uchta ustunga asoslanib tuzishga qaror qilindi. Sammit davomida muhokama qilingan mavzular orasida; ASEAN hamjamiyatini tashkil etish, 2015-yildan keyingi ASEAN manfaatlari, Janubiy Xitoy dengizi ustidan da'volar, "Global Moderatsiya Harakati" hamda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash masalalariga e'tibor qaratildi.

Yevropadan farqli o'laroq, nafaqat Janubi-sharqiy Osiyo mintaqasida, balki butun Osiyoda kuchli, ko'p tomonlama siyosiy institutlar deyarli yo'q. Xavfsizlikni ta'minlovchi Yevropa tuzilmalari (YeI, NATO, YeXHT, Yevropa Kengashi)ga Osiyoda faqat ASEAN, xavfsizlik masalalari bo'yicha RFA (Regional Forum ASEAN) va qisman OTOIH (Osiyo-Tinch okeani Iqtisodiy hamkorligi)





forumi ma'lum darajada mos keladi. ASEANga Xitoy hamda sharqiy va Janubi-sharqiy Osiyoning boshqa yirik o'yinchilari qo'shilmagan. OTOIH esa asosan konsultativ vazifalarni bajaradi. Osiyoda xavfsizlik ko'p tomonlama bitimlar bilan emas, balki mintaqa mamlakatlarning AQSh bilan ikki tomonlama shartnomalari, eng avvalo, AQSh bilan Yaponiya va AQSh bilan Janubiy Koreya o'rtasida tuzilgan xavfsizlik to'g'risidagi shartnomalar hisobiga ta'minlanadi.

Janubi-sharqiy Osiyo xavfsizlik tizimiga ta'sir qiluvchi kuchlar. Sharqiy va Janubi-sharqiy Osiyoda xavfsizlik tizimini yaratishda asosan to'rt yirik kuch: AQSh, Yaponiya, Xitoy va ma'lum darajada Rossiya ishtirok etadi. Shu bois xalqaro xavfsizlik sohasida mintaqadagi vaziyatga berilgan baholar va unda tinchlik va barqarorlik o'rnatish imkoniyatlari asosan Vashington, Tokio, Pekin va Moskvaning pozitsiyasi va siyosatiga bog'liq bo'ladi. Bir qator olimlar bu masalalarda Yaponiyaning yondashuvlari "AQShning yondashuvlaridan deyarli farq qilmaydi" deb ta'kidlashadi.

Janubi-sharqiy Osiyo AQSh va Xitoy o'rtasidagi raqobatning markaziy nuqtasi hisoblanadi. AQSh Tailand, Filippin va Singapur kabi mamlakatlar bilan uzoq yillardan beri xavfsizlik ittifoqlariga ega hisoblanadi. Bu ittifoqlarning harbiy jihati mavjud bo'lib, mintaqada AQSh harbiy bazalari, qo'shma harbiy mashg'ulotlar va mudofaa shartnomalarini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, Xitoy Janubi-sharqiy Osiyoda o'z ta'sirini kuchaytirmoqda. Bu ayniqsa, Janubiy Xitoy dengizidagi qat'iy siyosati hamda mintaqaviy savdo va investitsiyalardagi o'sib borayotgan ishtiroki orqali namoyon bo'lmoqda.

Janubi-sharqiy Osiyoda, xususan, Indoneziya va Filippin kabi mamlakatlarda terrorizm va radikallashuv bilan bog'liq muammolar mavjud. Mintaqadagi terrorchilik hujumlarida "Jamo'a Islomiya" va "Abu Sayyof" kabi guruhlar ishtirok etgan. Janubi-sharqiy Osiyoda terrorizmga qarshi kurash xalqaro hamkorlikni talab qiladi va mintaqadagi ko'plab davlatlar ushbu tahdidlarga qarshi kurashish uchun AQSh kabi global kuchlar bilan yaqindan hamkorlik qiladi.

Janubi-sharqiy Osiyo transmilliy muammolar, jumladan giyohvand moddalar savdosi, dengiz qaroqchiligi va noqonuniy baliq ovlash kabi xavflar uchun qaynoq nuqtalardan biri hisoblanadi. Ushbu muammolarni hal qilishda mintaqaviy hamkorlik va xalqaro aloqalar muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda ASEAN davlatlari bu umumiy tahdidlarga qarshi kurashish uchun birgalikda harakat qilmoqda.

Umuman olganda, bu mintaqaning yana bir o'ziga xos jihati – mintaqada hech qaysi davlat yadro quroliga ega emasligi bilan belgilanadi. Shu sababli ham bu mintaqada o'zaro davlatlar o'rtasida yadroviy urush xavfi deyarli yo'q. Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlarning xavfsizlik sohasidagi hamkorligining asosiy prinsiplariga quyidagilar kiradi:

- harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmaslik;
- tashqi siyosiy muammolarni tinch yo'l bilan hal qilishga intilish;
- konfliktlarni kuch ishlatmasdan hal qilish;





- yadroviy quoldan va boshqa ommaviy qirg'in quollaridan voz kechish;

- mintaqada quollanish poygasiga yo'l qo'ymaslik;

- kuch ishlatishdan yoki kuch ishlatish bilan tahdid qilishdan voz kechish.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, Janubi-sharqiy Osiyo xalqaro munosabatlarda ham o'ziga xos dinamik mintaqa sifatida, ham kengroq Hind-Tinch okeani kontekstida asosiy o'yinchi sifatida muhim o'rinni egallaydi. Uning strategik joylashuvi, boy tabiiy resurslari va shiddatli o'sib borayotgan iqtisodiyotga egaligi uni global savdo, investitsiyalar va xavfsizlik uchun muhim markazga aylantiradi. Mintaqaning ahamiyati uning ASEAN kabi ko'p tomonlama tashkilotlardagi faol roli bilan yanada global ahamiyatga ega bo'ladi, bu esa uning turli a'zo davlatlari o'rtasidagi hamkorlik va barqarorlikni global kuchlar bilan o'zaro faol tashqi aloqalar orqali qo'llab-quvvatlaydi. Janubi-sharqiy Osiyoning geosiyosiy ahamiyati AQSH va Xitoy o'rtasidagi davom etayotgan raqobatda, xususan, dengiz xavfsizligi, savdo va mintaqaviy kuch dinamikasida uning markaziy o'rni bilan ajralib turadi. Janubiy Xitoy dengizidagi mojarolar, xususan, mintaqaning global xavfsizlikdagi ahamiyatini yanada oshiradi, yirik kuchlarning e'tiborini qaratadi va kengroq geosiyosiy strategiyalarni shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Buzan, Barry, and Ole Wæver (2003). *Regions and Powers: The Structure of International Security*. Cambridge Studies in International Relations 91. Cambridge, UK, and New York: Cambridge University Press.
2. Severino, Rodolfo C., *ASEAN*, Institute of Southeast Asian Studies ISEAS, Singapore, (2008) p54
3. Muhammadsidiqov M.M Xorijiy Sharq va G'arb mamlakatlaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. O'quv qo'llanma. -Toshkent, 2013. -160 b.
4. Muhammadsidiqov M.M Zamonaviy xalqaro munosabatlarning mintaqaviy jihatlari. O'quv qo'llanma. -Toshkent, 2013. -176 b.
5. Каримова Н.Э. *Международные отношения стран Востока. Учебное пособие.* - Ташкент, 2017. -204 с.
6. Azimov, H. Y. (2019). THE PROBLEM OF MORO MUSLIMS. *Theoretical & Applied Science*, (6), 519-521.
7. Habibullo, A., & Durdona, M. (2021). *Xalqaro xavfsizlik o'quv qo'llanma.*
8. Bo'ronov, S., & Azimov, H. (2023). *Sharq mamlakatlarida xavfsizlik muammolari va mojarolari.* Toshkent: EFFECT_D.
9. Sharapov A.A. *Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlari va O'zbekiston Respublikasi munosabatlari.* Monografiya. -Toshkent, 2014. -216 b.
10. Fawsett Louise. *International Relations of the Middle East.* UK, Oxford University Press, 2016.
11. *The Asia-Pacific Power Balance.* London: Chatham House, 2015. 80 p.
12. Beeson M. *Institutions of the Asia-Pacific.* London-New York: Routledge, 2009. 147 p.
13. Muhammadolim Muhammadsidiqov, Habibullo Azimov. (2019). *Sharq mamlakatlari xalqaro munosabatlari.* Qaqnus media.

